

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

Isroilova Osiyo Soxibovna

Farg'ona viloyati Farg'ona shahar 3-o'rta ta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

e-mail:osiyoisroilova4@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6949080>

Annotatsiya: ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish haqida bo'lib, o'quvchilarni darslarda mustaqil fikrlay olishi uchun yangi metodlar va interfaol o'yinlardan foydalanish kerakligi, ona tili va savodxonlik darslari esa o'z fikrini yozishga, gapirib berishga o'rgatadi. Shu tufayli ushbu darslarni interfaol metodlar yordamida qiziqarli tarzda tashkil etish talab qilinadi. Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, interfaol, metod, qobiliyat, "Jim-jitlik", "O'zgarmaydigan 5 raqami" didaktik o'yinlari.

Mamlakatimiz buyuk kelajak sari intilib taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o'rnini egallab bormoqda. O'sib kelayotgan avlodning ta'lim-tarbiyasini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida eng ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Boshlang'ich ta'limda o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda har xil metodlarga asoslanib dars o'tish maqsadga muvofiq.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi, ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi usullarni qo'llab, ularga fan asoslaridan chuqur bilim berish hozirgi zamon boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun esa boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning ijodiy ishlarini tashkil qilishda ta'lim texnologiyalari, turli xil metod, usullar va tarqatma materiallardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchisining rivojlanishi va kamol topishi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarining shakllanishida muhim ahamiyat kasb

etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv kundankunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilganligidir. Zamonaviy texnologiyalar esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlari, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Ta'lim jarayonida

o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir.

O'qituvchining muvaffaqiyati uning, birinchi navbatda, g'oyaviy, nazariy va kasbiy tayyorgarligiga bog'liq. O'quvchilar bilan tinimsiz shug'ullanish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilish uchun turli xil qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazib borish, xalq ta'limi vazirligi tomonidan tashkil qilinayotgan onlayn tanlovlarda ishtirok etishga qiziqtirish bilim berish sifatini oshiradi.

O'quvchining egallagan bilimlari asosida pedagogning natijasi kelib chiqadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili, o'qish va matematika darslarini tashkil qilishda juda ko'p qiziqarli metodlar mavjud.

Bulardan mohirona foydalanish esa o'qituvchiga bog'liq.

Sayohat metodi orqali o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda axborot oqimidan foydalanishga o'rgatishdan mumkin. Bu esa ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini va sharoitini yaratib beradi. Bunday ta'lim shakllari ta'lim oluvchi diqqatini tortish hamda o'quvchilarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim.

Tajribada shuni ko'rsatadiki, yangi-yangi metodlardan foydalanish hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. "Jim-jitlik" o'yinini o'tkazish paytida o'quvchilar sinf xonasida jim-jitlik bo'lishiga o'quvchilarning o'zlarini tuta bilishlariga, o'rnidan tovush chiqarmay turib, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o'tkazishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, so'zlar va raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar. O'yin o'quvchilar fikrlash doirasini kengaytirishda fanga nisbatan yordam beradi. O'yin topshirig'i – o'qituvchining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. O'yin qoidasi ovoz chiqarmasdan harakat qilishni talab etadi. Bu o'yindan barcha fanlarda foydalanish mumkin. Sinf o'quvchilari 3 ta guruhga ajratiladi. 1-guruh o'quvchilariga turli xildagi rasmlar (buyuk allomalar, mualliflar, davlat ramzlari, shaharlar...), 2-guruh o'quvchilariga turli sanalar yozilgan tarqatmalar, 3-guruh o'quvchilariga ismlar va nomlar yozilgan tarqatmalar beriladi. Bu o'yinda sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirok etadilar. O'qituvchi tomonidan "O'yin boshlandi!" buyrug'i berilishi bilan 1-guruh o'quvchlari ovoz chiqarmay o'yinni boshlashlari kerak. Masalan, 1-guruh o'quvchilaridan biri Alisher Navoiy rasmini

ko'rsatadi, 2-guruhdan "1441-yil 9-fevral" yozuvini olgan o'quvchi ko'rsatadi, 3-guruhdan "Alisher Navoiy" yozuvini olgan o'quvchi ko'rsatadi. O'yin "Alisher Navoiy" yoki "1441-yil 9-fevral" yozuvini ko'rsatish bilan ham boshlanishi mumkin. O'qituvchi javoblarni ekranda ko'rsatib boradi. O'quvchilar bergan javoblari orqali o'zlarini baholab boradilar. O'yin shu tariqa davom ettiriladi.

"O'zgarmaydigan 5 raqami" didaktik o'yini orqali o'quvchilar 5 raqami bilan bog'liq narsalardan topib aytishlari kerak bo'ladi. Masalan, 5 ta muhim tashabbus, 5 karra, 5 baho, 5x5, 5 ta barmog'imiz, O'zbekiston 5 ta davlat bilan chegaradosh... Oddiy savol-javoblar barcha o'quvchini diqqatini o'ziga tortmasligi mumkin, bunday usullar esa, o'quvchining aqli rivojlanadi, xotirasi mustahkamlanadi, tafakkuri kuchayadi va ularning hozirjavobligini oshirib refleksiya bosqichini sifatli tashkil qilishda o'qituvchiga asqotadi.

Demakki, har bir o'qituvchi o'z o'quvchisini dars jarayonida faollashtira olsa, bolalarning o'qish, o'zlashtirish, bilim, ko'nikma, malakalarni egallash darajasi bilan birga mustaqil fikrlashdarajasi yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Shunday qilib, maktab o'quvchilari uchun didaktik o'yinlar, albatta, har bir bolaning manfaatlarini va uning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishlari kerak. Shu sababli, muayyan metodlar ta'lim jarayonida tanlashda o'qituvchi katta mas'uliyatga ega.

Xulosa qilib aytganda: bu metodlar o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari kengaytiradi, mavzuga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. O'z fikrlarini mustaqil va tezda bayon etishlariga olib keladi. O'qituvchining darsda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: 2008.
- 2.Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. Fan va texnologiya - 2005.
- 3.Jumayev M.E. "Matematika o'qitish metodikasidan praktikum" T.2003.
4. Mavlonova R. va boshqalar. Pedagogika T.: O'qituvchi.2010 y. 254-263 b.
5. "Zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolari". Toshkent – 2020.